ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2025 Vol. 2 (2)

www.literature.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosarlari: Nurboy Jabborov
Bahodir Karimov

Mas’ul kotib: Sohiba Madirimova

Tahrir kengashi

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Abdulla Ulug'ov, Dilnavoz Yusupova, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Shermuhammad Amonov, Shahlo Hojiyeva, Orzigul Hamroyeva, Ilyos Ismoilov, Sohiba Umarova, Gulbahor Ashurova, Ilhom Sayitqulov, Gulzoda Soatova, Dildora Rahmonova, Zilola Shukurova, Furqat To'xtamurodov, Sarvinoz Rasulova.

Jurnal haqida ma'lumot

“Adabiyotshunoslik” – “O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnalining adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi seriyasi bo‘lib, yilda to‘rt marta nashr etiladi.

Jurnalning “**Adabiyotshunoslik**” seriyasida o‘zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o‘zbek mumtoz adabiyotining qo‘lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e’lon qilinadi. O‘zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so‘nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo‘lishiga e’tibor beriladi.

“**Adabiyotshunoslik**” seriyasida O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning e’tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“**Adabiyotshunoslik**” seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: adabiyotshunoslik2022@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
www.literature.tsuull.uz

MUNDARIJA

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

Iqboloy Adizova
Millatni uyg‘otuvchi kuch 5

Shermuhammad Amonov
Ahmad Tabibiyning mustazod she’rlarga bog‘langan taxmislari 20

Furqat To‘xtamuratov
Muhsiniy she’riyatida qo‘llangan ma’naviy san’atlarning ijodkor g‘oyaviy niyatini ochishdagi o‘rni 38

Hulkar Sulaymonova
“Rasailu-l-Xorazmiy” asarining qo‘lyozma nusxalari geografiyasi 52

Sanobar Muxamedxodjayeva
Alloma Mahmud Zamaxshariy va uning ijodiy faoliyati 64

Aziza Muratova
Alisher Navoiy ijodida Yusuf (a.s.) obrazi 75

Aziza Almardonova
Orifona g‘azallarda nafs tarbiyasi 85

Nargiza Boymuratova
Lutfiy she‘riyatida orif obrazi 94

Kamola Allanazarova
She’riyatda davr muammolari va ma’rifat talqini 105

Nafisa Tuxsanova
Sa’dulla Siyoyevning “Shaybonixon” obrazini yaratishda badiiy mahorat 117

Mubina Abbasova
Yangi O‘zbekiston boburshunosligi 123

ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI

Abdulla Ulug‘ov
Badiiy asarda adabiy qahramon portretining o‘rni va ahamiyati 132

Islomjon Yoqubov
“Jaloliddin Manguberdi” dramasining badiiy jozibasi 208

Umida Rasulova
Hikmatlarda odam va olam konsepsiyasi 221

Tozagul Matyoqubova
Fikr va tuyg‘uni yagona rakursda uyg‘unlashtirgan shoir 230

Sarvinoz Rasulova
Tohir Malik asarlarida qatag‘on qurbonlari taqdirining aks etishi 241

Matluba Norbaboyeva
O‘zbek xalq maqollarida yetimlik motivi talqini 251

Usmonova Sharifa
Muhammad Alining “Mangu quyosh” romanida obrazlar xilma-xilligi 260

Sarvinoz Rasulova, Madina Bolliyeva
Balladada tuyg‘u tasviri 270

Oygul Matkurbanova
Qamchibek Kenja hikoyalarida ayol obrazi 279

Dilovar Nurmuradova
Abdurashid Nurmurodov ijodida urush mavzusining aks etishi 291

Shalola Davletova
Borxes ijodining falsafiy talqini 300

Ma’rifat Alimqulova
Mamatqul Hazratqulov hayoti va ijodiga chizgilar 309

Habiba Ergasheva
Faxriyorning she’riy tarjimalari 320

Muharram Ibodullayeva
Biografik metodning badiiy asarni o‘rganishdagi imkoniyati ...330

Uzbekistan: Language and Culture 2025/2(2)
ISSN 2181-922X 291—299

Abdurashid Nurmurodov ijodida urush mavzusining aks etishi

Dilovar Nurmuradova[1]

Abstrakt

Mazkur maqolada o‘zbek nasrining yirik vakillaridan biri Abdurashid Nurmurodov ijodida urush mavzusining badiiy aks etishi tahlil qilinadi. Muallif Nurmurodov asarlarida urush faqat tarixiy hodisa emas, balki chuqur ijtimoiy-ruhiy fojia sifatida yoritilishini ko‘rsatadi. Asosiy e’tibor urush ishtirokchilarining ichki kechinmalari, jamiyatdan begonalashuvi, ruhiy jarohatlari orqali ochilgan badiiy tasvirga qaratilgan. “Qonli yo‘rgaklar” va “Qon hidi” kabi asarlar tahlili orqali yozuvchining psixologik realizmga xos uslubi, simvolika, ichki monolog, kontrast kabi badiiy vositalardan foydalanishi yoritiladi. Nurmurodov urushni milliy qadriyatlar sinov maydoni sifatida tasvirlab, o‘zining chuqur ijtimoiy va falsafiy qarashlarini aks ettiradi. Maqola adabiyot, tarix, ruhshunoslik va sotsiologiya kesishmasidagi yondashuvlar orqali yozuvchining ijodiy uslubini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: *urush mavzusi, o‘zbek adabiyoti, psixologik realizm, badiiy tasvir, “Qonli yo‘rgaklar”, “Qon hidi”, ruhiy jarohat, ichki konflikt, sotsiologik tahlil.*

Kirish

O‘zbek adabiyotida urush mavzusi keng qamrovli va murakkab g‘oyaviy-estetik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu mavzu ayniqsa XX asrning o‘rtalarida, xususan Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr adabiyotida alohida o‘rin egalladi. Abdurashid Nurmurodov o‘zbek nasrining salmoqli vakillaridan biri sifatida urush mavzusiga badiiy-estetik jihatdan yondashgan ijodkordir. Uning asarlarida urush nafaqat tarixiy fakt, balki chuqur ijtimoiy-ruhiy jarayon sifatida tahlil qilinadi. Abdurashid Nurmurodov ijodida urush mavzusining aks etish xususiyatlari, badiiy tasvir vositalari, qahramonlar ruhiyati va sotsiokulturologik kontekst asosida tahlil qilishga urinamiz.

Abdurashid Nurmurodov urushni faqat jang maydonlarida

[1] *Nurmuradova Dilovar Baxodirovna* - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti.
E-mail: uzbektili@mail.ru
ORCID ID: 0009-0001-3357-7557
Iqtibos uchun: Nurmuradova, D. 2025. “Abdurashid Nurmurodov ijodida urush mavzusining aks etishi”. *O‘zbekiston: til va madaniyati*. 2(2): 291-299.

emas, balki uning jamiyat, oila va shaxs hayotiga koʻrsatgan salbiy ta’siri orqali ochib beradi. Uning qalamiga mansub hikoya va qissalarda urush insoniyatga qarshi qaratilgan yovuz kuch sifatida tasvirlanadi. Muallif urushni “buyruq asosida boʻladigan milliy fojia” sifatida talqin etadi. Bu esa uning asarlarida falsafiy-fikriy qatlamni shakllantiradi. Urush mavzusi Nurmurodov asarlarida koʻpincha psixologik konfliktlar orqali ochiladi. Bu konfliktlar tashqi voqelikdan koʻra ichki kechinmalar, insonning qalbiy iztiroblari orqali ifodalanadi.

Abdurashid Nurmurodov asarlarida urush ishtirokchilari koʻpincha frontdan qaytgan, lekin tinch hayotga qayta moslasha olmayotgan, ruhiy jarohat olgan insonlar sifatida tasvirlanadi. Ular orasida nevrotik holatga tushgan, hayotga ishonchini yoʻqotgan yoki urush tufayli yaqinlarini yoʻqotib, iztirob chekayotgan personajlar koʻp. Qahramonlarning ichki dialoglari, xotiralari, tushlari va hayoliy kechinmalari orqali urushning ruhiy oqibatlari badiiy tasvir topadi. Bu uslub Abdurashid Nurmurodovni psixologik realizmga yaqinlashtiradi.

Abdurashid Nurmurodovning asarlarida urush mavzusi chuqur tahlil etilgan. Ayniqsa frontdan qaytgan, ammo hayotiy pozitsiyasini yoʻqotgan inson timsolida urushning ruhiy va ijtimoiy izlarini goʻzal ifodalaydi. Urushdan keyingi jamiyatdagi koʻplab sobiq harbiylarning umumiy portreti sifatida obrazlar yaqqol koʻriladi.

Yoki nafaqat jismoniy, balki ruhiy jarohat asosiy badiiy markazga chiqadi. Urush ishtirokchisining jamiyatga begonalashuvi, oʻzini keraksiz his qilishi zamirida murakkab ruhiy holatlar ochiladi. Nurmurodovning asarlarida urush nafaqat individual fojiaga, balki ijtimoiy yadrolanish yoxud sotsial fragmentatsiya jarayoniga sabab boʻlgan hodisa sifatida aks etadi. Urushdan soʻnggi davrda qahramonlar jamiyatdan uzilgan, axloqiy mezonlar oʻzgarib ketgan muhitda yashaydi. Bu esa muallifning sotsiologik tahliliy koʻzini koʻrsatadi.

Muallif urush mavzusini yoritishda turli badiiy vositalardan foydalanadi: Simvolizm nafaqat tana jarohati, balki jamiyat va ruhiyatdagi yarani ifodalaydi. Ichki monolog va ong oqimi urush ishtirokchisining ichki iztiroblari ong oqimi shaklida tasvirlanadi. Kontrast urushdagi “jasorat” va tinchlikdagi “boʻshliq” oʻrtasidagi farq kontrastli obrazlar orqali beriladi. Metafora va lirik tahlilda esa urush holatlari koʻpincha kuchli lirik boʻyoqlar bilan boyitilgan metaforalar vositasida ifodalanadi.

Abdurashid Nurmurodov urushni milliy qadriyatlar – oila,

mehr, sadoqat, vatanparvarlik orqali baholaydi. U uchun urush bu qadriyatlarning sinov maydonidir. Bu esa muallifning adabiy-falsafiy dunyoqarashini ochib beradi.

Abdurashid Nurmurodov Ikkinchi jahon urushi haqida "Urush bevalari", "Tutash qalblar", "Bolalikka otilgan o'q", "O'lim ko'z yosh to'kkanda", "Urushdan so'ng" kabi asarlarini yozgan. Ushbu asarlarning barchasi tarixiy voqealar, badiiy hikoyalar orqali yoritiladi. Urush ko'rgan odamlarning barchasi o'sha kunlari xotirasi bilan yashashini muallif "Qonli yo'rgaklar" kitobida bir-biriga o'xshamagan xislatlar orqali ochib bergan. Urush ko'rganlar o'z so'zlari orqali sizni tinglovchiga, o'quvchiga, ular bilan birga-birga jang qilgan safdoshga aylanishingizni muallif mahorat bilan yozilgan asardir.

Yozuvchining "Qonli yo'rgaklar" kitobini sokin o'qish mumkin emas. Sizni doimo sergek tutib, tuyg'ularingizni g'alayonga soluvchi kuch kuch -– kitobning to'g'ri so'zligida. Sizni muallif sahifama sahifa suhbatdoshlari xotiralari orqali afg'on urushi to'fonidan guvohdek o'ta olganligida. U avvaldan hukm chiqarib, tomonlarni oq, qora bo'lmay, bizni faol o'quvchi va hukm chiqaruvchiga aylantira olganligida. Bu holat esa o'zbek prozasining 90-yillardagi eng katta yutuqlaridan biri deb aytish mumkin. Demakki, to'g'ri so'z qaysi davrda, kim tomonidan aytilmasin o'rni va shaklini topib aytiladi va qadrini topadi. Aytuvchini ham qadrli etadi. Afg'onistonda o'tgan o'n yillik urush mavzusi hali ko'p bor ilmga, adabiyotga qaytadi. Lekin bu paytgacha yozilgan ko'plab asarlar orasida "Qonli yo'rgaklar" "jonli guvoh" kabi yozilajak asarlarga, ilmiy ishlarga mavzu bo'ladi. Bu asar uni o'qigan har bir odamga hayot deb atalmish sir qarshisida turib o'z-o'zini anglashida muhim saboqqa aylanadi.

Odatda urush haqidagi har qanday janrdagi asarlarda qahramon, albatta, g'alaba qozonadi. G'alaba asarning asosiy mezoni. Bu asardagi qahramonlarning birortasi "g'alaba" so'zini og'ziga olmaydi. Chunki ular afg'on urushi besamar, maqsadsiz urush ekanligini tushunib yetdilar. Kitob qahramonlari - xotiradoshlar otilishga mahkum bo'lgan bir to'da "kimsa"larning qurboni. O'sha kimsalar bugun ham bor. Hammasi biz bilan yonma-yon yashayapti.

Yozuvchi butun og'irligi mehnatkash, nochor oilalar zimmasiga tushgan afg'on urushining tub ildizlarini ochib tashlagan, desak, mubolag'a bo'lmas. Muallifning diqqatga sazovor mu-vaffaqiyatlaridan biri shuki, afg'on fojiasi faqat bizning emas, butun dunyo fojeasi bo'lganini, fojia keltirib chiqargan oqibatlarni ko'z o'ngimizda ro'yirost namoyon qila olgan.

Kitobda yolg‘on gaplar xalqqa yetkazilar ekan (zotan, sobiq ittifoq davridagi targ‘ib tashfiq ishlari ommani mushohada qilishga imkon bermagan edi), go‘yo “Sovet armiyasi sotsializm qurmoqchi” bo‘lgan afg‘on xalqiga yordam bermoqchi, o‘z baynalmilal burchini bajarmoqchi-yu dushmanlar “tish-tirnog‘i bilan qarshilik ko‘rsatayotgan ekan”. Dushman kim? Kitobni o‘qiy borgan sari dushmanning qiyofasi ma’lum bo‘lib boradi.

Nasimxon Rahmonovni 2019-yilda “Mumtoz so‘z” nashriyotida nashr qilingan “Tarixdan oziqlanib” kitobining ilk sahifasida yana olim Abdurashid Nurmurodovning “Qonli yo‘rgaklar” kitobiga qaytib shunday yozadi: “Shu paytgacha ko‘p kitoblar mukofot oldi. Lekin, ming afsuslar bo‘lsinki, o‘sha mukofotxo‘r kitoblarning ko‘pchiligi unutilib ketdi. Zamonasoz asarlarning qismati shunday bo‘ladi. Abdurashid Nurmurodovning kitobi uzoq yillar unutilmas xotira bo‘lib, kelgusi avlodlar uchun saboq darsi bo‘lib qoladi. Mazkur asar 1991-yilda nashr qilingan edi. Oradan o‘tgan bir yil orasida rus tiliga tarjima qilindi. Hozirgacha bu kitob turli nashriyotlarda juda o‘nlab marotaba chop etilgan. O‘zbek tilida qayta uch marotaba nashrdan chiqdi” [Rahmonov 2019. 4].

Yozuvchi Abdurashid Nurmurodovning “Qon hidi” romani yuqorida biz tilga olgan “Qonli yo‘rgaklar” asarining davomiga o‘xshab ketadi. Chunki “Qonli yo‘rgaklar” asaridagi Abduvohid obrazi “Qon hidi” romanining qahramoniga aylangan. Uni “Qonli yo‘rgaklar” kitobidagi hikoyasi “Qon hidi” romanida kengayib, afg‘oniston urushida qatnashgan barcha yigitlarni o‘z qalbi, o‘ylari, fikrlari markazida birlashtiruvchi odamga aylanadi.

“Qonli yo‘rgaklar” asaridagi har bir personajni roman, qissalarning bosh qahramoniga aylantirish mumkin ekanligini bilish mumkin. Chunki ularning har biri alohida jangchi, alohida o‘z fikr o‘ylariga ega bo‘lgan odamlardir. Yozuvchilar kichik bir voqea turtkisi bilan ulkan asarlarini yozganidek, “Qonli yo‘rgak”lardagi barcha voqealar hajmi juda kichik bo‘lsa-da ammo ularning ko‘lami mohiyatan ancha keng va terandir.

Yozuvchi “Qon hidi” romanini boshidanoq o‘quvchining xayoliga kelmagan girdobga tashlab yuboradi. O‘quvchi hayotida hech qachon duch kelmagan girdobdan qanday chiqish yo‘llarini yodidan chiqaradi va girdobga tashlangan qahramon yonida abadiy qolib ketadi. Ana shu girdob ichidagi bizga noma’lum bo‘lgan voqea hodisalarni o‘zbek adabiyotshunoslik fanining yirik namoyandalaridan biri filologiya fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo‘ldosh “Qon hidi” romaniga yozgan so‘zboshisi “Iztirob

chaqinlari”da shunday ta’kidlaydi. Ijodkorning girdobga tashlangan romani qahramoni bilan yonma-yon ketayotgan olimni fikr-o‘ylarini siz o‘quvchi bilan baham ko‘rishni lozim topdik.

“Asarda yozuvchi faqat tasvirlash, aks ettirish bilan emas, balki mushohadalar, o‘ylar oqimini ifodalashi bilan ham yuksak badiiy natijalarga erishgan. Chunonchi, asardagi: “Ha, bunday odamlar minglab yillar yashaydi, yashayberadi. Chunki ular hech qachon o‘zlari birinchilardan bo‘lib otilib chiqmaydi, bil’aks otilib chiquvchilarni tayyorlab berishadi. Shuning uchun ular jamiyatning ustozi, ustoz bilan esa jamiyatning hisoblashmasdan iloji yo‘q” yoki “Bizning har birimiz tirik jonga miltiq o‘qtalganimizda o‘zga odamning barmoqlari tepkini bosardi” tarzidagi xulosalari juda nozik kuzatuv samarasidir. Bu tasvir inqiloblarni tayyorlovchilar, ijro etuvchilar va huzurini ko‘rguvchilar haqidagi mashxur qarashlarni esga soladi” [Nurmurodov 2019, 5].

Abdurashid Nurmurodovning “Qon hidi” romani urushdan qaytib, avvalgi hayotida yashab ketolmagan Vohid haqida hikoya qiladi. Egasiz, tashlandiq, kimsaga aylangan nochor yigit asar so‘ngida yana urush boshlanganligini eshitib xursand bo‘lib ketadi. Ushbu qo‘rqinchli tasvirni yozuvchi shunday hikoya qiladi: “..Miltiqning tepkisiga ko‘rsatkich barmog‘im tekkanda, o‘z-o‘zidan harakatga keldi. Barmoqdan boshlangan xuruj vujudimga yoyildi. Xuddi kayfiyatni ko‘taruvchi xapdori ichib olganday ko‘zlarim ravshan tortib, chor-atrof go‘zallashdi.nQo‘limga miltiq tutqazgan Odiljon esa xaloskorimday ko‘rinib ketdi. Shuncha yillar yuragimni kuydirib, jonimni qiynoqqa solgan xotiralar kishani yechilib, ozod odamga aylanib qolganday edim. Ana shu ozodlik esa miltiqli kunlarimga ohangraboday chorlar edi. Xuddi hozir, kimnidir otishga chog‘langanday:

– Qachon ketamiz? – deya shivirladim” [Nurmurodov 2019, 5].

Ko‘rinib turibdiki, urushda qatnashgan va ortga qaytgan insonlarning jamiyatga begonalashuvi kuzatiladi, ularning ijtimoiy-psixologik dunyosida to‘ntarilishlar bo‘ladi, hatto ular urushni qo‘msay boshlaydi. Asar so‘ngidagi mana shu asl haqiqat o‘quvchini qayta-qayta o‘ylashga, unga notanish, begona, qo‘rqinchli xursandchilikka beixtiyor tortilganligimizni anglab yetganimizda, bu xursandchilik sababi yana qayta odam o‘ldirishga chorlov ekanligini his qiladi. Ushbu asar bir jangchi qismati orqali xayollari, o‘ylari, teskari bo‘lib qolgan minglab, millionlab urush qilgan jangchilarning qismati ekanligini anglab qolasiz” [Nurmurodov 2019, 5].

Ko‘pchilik Abdurashid Nurmurodovni harbiy mavzuda ijod qiladigan yozuvchi sifatida taniydi. U nafaqat harbiy mavzuda, balki siz bilan biz yashayotgan davr odamlari haqida ham asarlar yozgan. “Oq qizlar”, “Tazarru” nomi bilan chop etilgan qissa va hikoyalari, “Nurafshon yog‘du”, “Alfred Nobel qo‘g‘irchoqlari”, “Ko‘k teraklar” nomli romanlarida bugungi kun odamlarining turmush tarzi, ular bosib o‘tgan yo‘ldagi og‘ir va yorug‘ kunlar mahorat bilan tasvirlangan bo‘lib, asar personajlarining birontasi ham mukammal insonlar emas, ya’ni ularning ham o‘ziga xos kamchiliklari, dard-u hasratlari bor.

Abdurashid Nurmurodovning “Qonli yo‘rgaklar”, “Qon hidi” asarlari – tarix, adabiyot, ruhshunoslik, tibbiyot va yana bir qancha fanlarni oziqlantiruvchi ensiklopedik xarakterdagi kitob. Chunki asarda biz yuqorida e’tirof etgan fanlarning kemtik joylarini to‘ldirishga xizmat qiladigan aniq hujjatlar aniq voqealar orqali isbotini topgandir. Urushda uni o‘zidan minglab chaqirim uzoqlikdagi onasi o‘limdan olib qolganligini “Qonli yo‘rgaklar” qahramonlaridan biri Temur Saidov shunday hikoya qiladi:

“Oldinda tank ketardi. Ustida o‘rtoqlarim - Viktor va Ma’mur o‘tirishardi. Bu yo‘l bizning har kuni o‘tadigan yo‘limiz edi. Tank bizdan ikki yuz metrlar uzoqlashganda bexosdan portladi. Ikki do‘stimning bir muddat havoda muallaq qolib, so‘ngra yerga qulashini ko‘rib turardim. Tank esa lovullab yonardi. Bunday voqealar u yerda tez-tez bo‘lib turar, bugun u do‘stimizdan, ertasiga boshqasidan ajralib qolaverardik.

Sarxushlik ayladi. Boshimni yumshoq tuproqqa qo‘ydim. Ko‘m-ko‘k osmon torayib kelib, bir nuqtaga aylandi. Hozir-hozir o‘zimni otib tashlayman, deb o‘yladim. Bu mo‘jiza bo‘lsa kerak. Ha, ha, mo‘jiza. Ko‘zimni ochganimda uydagilar, otam, onam, bir joyga to‘planishib nimalarnidir gapirishar, quloqlarim ostida esa:

– Bolajonim, unday qilma, sendan yalinib-yolvorib so‘raymiz, o‘zingniotma, - degan ovozlari edi.

Hamon o‘sha kunni eslasam, ular tunlari tushlarimga bostirib kirishib, yalinib-yolvorishadi...” [Nurmurodov 2019, 87].

Ha, “Qonli yo‘rgaklar” kitobi sahifalaridagi Temurday bag‘ri xun bolalar o‘zandagi “toza suvni bulg‘ab” ketayotgan jamiyatning qarshisiga chiqib dod-faryod qilgan odamlarning ohu-fig‘onidir. Bir zamonlar shoir Cho‘lpon aytgan edi: “Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir…”. Ammo kuchli bosimi ostida “xalq hech kimdir…”. Ana shu “hech kim” uzoq yillar mobaynida shu tamg‘a bilan yashab keldi.

“Muloqot” jurnali bosh muharriri, O‘zbekiston xalq shoiri, A.Navoiy nomidagi davlat mukofotining sovrindori Barot Boyqobilov ijodiy xodimlarning davlat mukofotlar qo‘mitasiga bag‘ishlangan yig‘ilishida yozuvchi Abdurashid Nurmurodov haqida shunday so‘zlarni aytgan edi:

Abdurashid Nurmurodov o‘ziga xos ijodkor. U ayrim jurnalistlarga o‘xshab bugun u mavzuda, ertasiga boshqa mavzuda yozib bor talantini ham yo‘qotib, maydalashib ketmadi. U har qanday sharoitda ham o‘zi tanlagan yo‘lga sodiq qoldi. Qahramonlari esa har birimizning yordam qo‘limizga muhtoj bo‘lgan onalar, mayib-majruh bo‘lib qaytgan farzandlarimizdir. Ijodkorni qahramonlaridan ham yaxshi bilib olsa bo‘ladi. U jurnalimizda ham “Inson ruhiga chizgilar” rubrikasini ochib, oddiy, hech bir ta’maga qurilmagan hazarti Insonni kuylovchi xujjatli badiiy asarlar yozdi. Ularni keng jamoatchilik yaxshi kutib oldi.

Adabiyotlar

Nurmurodov A. (2010). Urush va bola. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti.

Бахтин М.М. (1975). Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература. – С. 322.

Юсупова Д. (2008). Ўзбек болалар адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан. – Б. 114.

Ражабова Н. (2019). Болалар учун ёзилган кичкина дунё: Абдурашид Нурмуродов ижоди ҳақида. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. №12.

Абдурашид Нурмуродов. (2010). Уруш ва бола. – Тошкент: Ёшлар. – Б. 45.

Ибрагимова Ш. (2020). Болалар адабиётида урушнинг таъсири. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. №8.

Abdullayeva S. (2019). O‘zbek bolalar prozasida fojia va insoniylik. – Toshkent: Navro‘z.

Мўминова М. (2021). Болалар учун бадиий услубнинг аҳамияти. // Ўзбек тили ва адабиёти. №3. – Б. 58.

Қурбонов А. (2022). Болалар адабиёти ва тарбиявий функция. // Ўқитувчи жамияти. №5. – Б. 36.

Jo‘rayeva, G. (2021). Bolalar hajviy she’riyati–ma’rifiy va estetik tarbiya quroli sifatida. *Uzbekistan: Language and Culture*, *4*(4).

Jo‘rayeva, G. Methods of Creating Satirical Image.

The Reflection of the Theme of War in the Works of Abdirashid Nurmurodov

Dilovar Nurmuradova[1]

Abstract

This article analyzes the artistic reflection of the theme of war in the works of Abdurashid Nurmurodov, one of the great representatives of Uzbek prose. The author shows that in Nurmurodov's works, war is not only covered as a historical event, but also as a deep socio-spiritual tragedy. The main attention is paid to the artistic image revealed through the internal experiences of the war participants, their alienation from society, and their mental trauma. Through the analysis of works such as "Bloody Blankets" and "The Smell of Blood", the writer's style of psychological realism, the use of artistic means such as symbolism, internal monologue, and contrast are highlighted.

Nurmurodov describes the war as a testing ground for national values, reflecting his deep social and philosophical views. The article is devoted to analyzing the writer's creative style through approaches at the intersection of literature, history, psychology, and sociology.

Keywords: *war theme, Uzbek literature, psychological realism, artistic depiction, "Bloody Diapers", "The Smell of Blood", psychological trauma, internal conflict, sociological analysis.*

References

Nurmurodov A. (2010). Urush va bola. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti.

Baxtin M.M. (1975). Voprosы literaturы i estetiki. – M.: Xudojestvennaya literatura. – S. 322.

Yusupova D. (2008). O'zbek bolalar adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan. – B. 114.

Rajabova N. (2019). Bolalar uchun yozilgan kichkina dunyo: Abdurashid Nurmurodov ijodi haqida. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. №12.

Abdurashid Nurmurodov. (2010). Urush va bola. – Toshkent: Yoshlar. – B. 45.

Ibragimova Sh. (2020). Bolalar adabiyotida urushning ta'siri. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. №8.

[1] *Nurmuradova Dilovar Baxodirovna* – master of Tashkent State University of Uzbek language and literature named after Alisher Navo'i.
E-mail: uzbektili@mail.ru
ORCID ID: 0009-0001-3357-7557
For citation: Nurmuradova, D. 2025. "The Reflection of the Theme of War in the Works of Abdirashid Nurmurodov". *Uzbekistan: Language and Culture.* 2(2): 291-299.

Abdullayeva S. (2019). O‘zbek bolalar prozasida fojia va insoniylik. – Toshkent: Navro‘z.

Mo‘minova M. (2021). Bolalar uchun badiiy uslubning ahamiyati. // O‘zbek tili va adabiyoti. №3. – B. 58.

Qurbonov A. (2022). Bolalar adabiyoti va tarbiyaviy funksiya. // O‘qituvchi jamiyati. №5. – B. 36.

Jo‘rayeva, G. (2021). Bolalar hajviy she’riyati–ma’rifiy va estetik tarbiya quroli sifatida. *Uzbekistan: Language and Culture*, *4*(4).

Jo‘rayeva, G. Methods of Creating Satirical Image.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. ("and others"):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. "Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War." In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elswehre:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. "Handbook on Canvassing for the Consulship." In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. htpp: //press-pubs.uchicago.

edu/founders

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to http://dx.doi.org / in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network."*American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010…"); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." New York Times, February 27. http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html.

In text cite:

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko‘chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com